

**O'ZBEK TILI XALQIMIZ UCHUN MILLIY O'ZLIK VA  
MUSTAQIL DAVLATCHILIK TIMSOLIDIR**

*Xalikova Shaxnozaxon Azimjonovna*

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

***Abdurashidov Kamoliddin Baxtiyorjon o'g'li***

*Andijon davlat mashinasozlik instituti talabasi*

*Tel: +998 93 884 76 64*

*Email: [kabdurashidov391@gmail.com](mailto:kabdurashidov391@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur izlanishda til millatimizning mavqeyi ekanligi, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligi va o'zbek tilining tarixi, rivojlanish jarayonlari va uni o'qitishning afzallikkleri yoritib berilgan. Bundan tashqari, maqolani yoritish davomida o'zbek tilining rivojlantirish jarayonlari va uni madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida ham fikr mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Til, millat, madaniyat, ma'naviyat, dastur, mustaqil davlat, adabiy til, til bayrami, urf-odat, xalqaro.

**Kirish:** Til – milliy davlatchiligiga ega bo'lgan har bir xalq suverenetining muhim belgisi va millat ma'naviyatining ajralmas tarkibiy qismidir. Til jamiyatda insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy kamolotini aks ettiruvchi ko'zgu hisoblanadi [1].

1989- yilning 21- oktyabr kuni respublikamizda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Konstitutsiyamizning 4- moddasida ham davlat tili – o'zbek tili ekanı mustahkamlab qo'yildi [2]. Xalqimiz o'rtasida tilga ma'naviy-madaniy meros, umummilliy boylik, oliy qadriyat sifatida yondashuv shakllandi. Tilni milliy ruh va milliy imkoniyatlar asosida ilmiy tadqiq etish harakati kuchaydi, tilning ilmiy, diniy, rasmiy va idoraviy uslublari mustahkamlandi . Bundan tashqari O'zbek tilining mamlakatimizda davlat tili sifatida amal qilinishining huquqiy asoslari qonunan belgilab qo'yildi. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida" gi qonuni 3 tamoyil: umumiylilik, majburiylik va huquqiy kafolatga asoslanadi[2]. Darhaqiqat, davlat tilining mustahkam huquqiy maqomi belgilab qo'yilgani tilimizning boy imkoniyatlaridan keng foydalanishga yetarlicha zamin yaratib, mamlakatimizda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analarini hurmat qilinishi barobarida o'zbek tilining erkin muomalada bo'lishi uchun zarur shart-sharoitni yaratib berdi. O'zbekiston Respublikasi dunyoda rivojlangan mamlakat bo'lishi uchun xalqimiz o'zbek tilining maqomini rivojlanishiga o'z

iste' dodlarini namoyon etishlari lozim. O'zbek tilining xalqaro miqyosdagi obro'-etiborini yuksaltirish, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qo'shish har birimizning muqaddas burchimiz hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2019-yil 21-oktyabrda "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmonni imzoladi [3]. Unga muvofiq, 2020-2030- yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiysi tasdiqlandi [3]. 2020-yil 20- oktyabrda esa Prezidentimizning "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoni e'lon qilindi [4]. Shunga muvofiq mamlakatimizdagи har bir jarayonlar, hujjatlar o'quv jarayonlari va uslubiy loyiylar o'zbek tilida yuritiladigan bo'ldi. Hozirgi kunda o'sib borayotgan yosh avlodimizga o'zbek tilini o'rgatish ham davlatimiz tomonidan yo'lga qo'yildi.

Dunyoning tildagi manzarasi voqelikni madaniy manzarasi orqali o'zida mujassamlashtiradi. Til – madaniyatning o'zagi, lekin madaniyat ham tilning ajralmas qismi hisoblanadi. Dunyoning tildagi manzarasi, inson ongida mujassam bo'lgan dunyo obrazini, ya'ni, insonning jismoniy tajribasi va ma'naviy faoliyati natijasida yaratilgan dunyoqarashni tushunadigan bo'lsak, unda to'laligicha madaniy manzara bilan qamrab olinmagan. Dunyoning madaniy va tildagi manzaralari o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'langan, uzlusiz ravishda o'zaro harakatda bo'ladi va dunyoning real manzarasiga chiqib boradi. Har qanday madaniyatning yemirilishi esa har doim aynan bir yo'l – madaniyat elementlarining izolyatsiyalanishi yo'li bilan sodir bo'ladi, ya'ni, turmush sharoitlari o'zgarishi natijasida simvolizm hayotni tark etganida madaniyatning ajralib qolgan tilning tajovuzlari ham halok bo'lganiga ishonishimiz mumkin.

Muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning "Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin" degan so'zlaridan shuni anglab yetishimiz kerakki, til har bir davlat madaniyati va ma'naviyatining o'zagi, u xalq taraqqiyoti kelajagini belgilaydigan, birlashtiradigan, tarbiyalaydigan, o'qitadigan va urf-odat an'analarini saqlaydigan asosiy vosita ekanligini har birimiz chuqr anglab, ona tilimizning xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini yuksaltirishda, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qo'shishda chuqr hurmat bilan yondashimiz kerak.

Prezidentimiz 21- oktyabr kuni o'zbek tiliga davlat tili berilganining 30-yilligiga bag'ishlangan nutqlarida ham o'zbek tiliga bo'lgan hurmat-ehtiromini yuksak darajada baholagan[4].

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan ma’naviy hayotimizni yanada rivojlantirish, jumladan, ta’lim-tarbiya ishlarini zamon talablari asosida tashkil etish, madaniyat, san’at va boshqa adabiyot sohalarini takomillashtirish, kitobxonlik madaniyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan o‘nlab farmon va qarorlar o‘zbek tili ravnaqiga bevosita xizmat qilmoqda. Bu haqda gapirganda, keyingi yillarda ona tilimizda faoliyat yuritadigan yuzlab bog’chalar, maktablar, oliy o‘quv yurtlari, yangi gazeta va jurnallar, teleradio kanallar, nashriyotlar, madaniy-ma’rifiy muassasalar, kutubxonalar tashkil etilganini qayd etishimiz lozim.

Hozirgi kunda o‘zbek tilini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar quyidagi tadbirlarni o‘z ichiga oladi: Bular:

**Milliy ta’lim standartlarini yangilash:** O‘zbek tilini o‘rganishga doir dastur va o‘quv rejalarini takomillashtirish. Ta’lim jarayonida o‘zbek tilini o‘rganish va uni qo’llashga alohida e’tibor berish.

– **O‘qituvchilarning malakasini oshirish:** O‘zbek tili o‘qituvchilari uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish, yangi metodikalar va onlayn kurslarni takomillashtirish;

– **Til o‘rganish resurslarini yaratish:** O‘zbek tilini o‘rganuvchilar uchun qulay va samarali o‘quv materiallarini, jumladan o‘quv qo’llanmalarini va elektron resurslarni ishlab chiqarish;

– **Til o‘rganish dasturlarini xorijiy tillarni o‘rganish dasturlari bilan integratsiyalash:** O‘zbek tilini asosini xorijiy tillar bilan o‘zlashtirish muhimligini takomillashtirish;

– **Tilning xalqaro o‘rni va nufuzini oshrish:** O‘zbek tilini xorijda o‘rganish va o‘rgatishni qo’llab-quvvatlash, jumladan, o‘zbek tili kurslarini xorijiy davlatlardagi o‘quv muassalarida yo‘lga qo‘yish;

– **Milliy madaniyat va san’atga e’tibor qaratish:** Til o‘rganuvchilarni milliy adabiyot, musiqa, teatr va kino asarlariga jalb qilish orqali tilni xalqimizni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish.

Bu kabi islohotlar o‘zbek tilini o‘rgatishning sifatini oshirishga va uning tarqalish doirasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Hozirgi paytga kelib mamlakatimizda ona tilimiz va miliy adabiyotimizni ulug‘lash, uning boy xazinasi, tarovati va nafosatini yosh avlodimizga yetkazish maqsadida, atoqli shoир va adiblarimiz nomlaridagi ijod maktablari tashkil etildi. Muhammad Rizo Ogahiy, Ishoqxon Ibrat, Abdulla Qodiriy, Hamid Olimjon, va Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibroyim Yusupov, Halima Xudoyberdiyeva, Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktablarida, eng avvalo, o‘zbek tili va adabiyotini, badiiy ijod sirlarini chuqr o‘rganish uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Bundan kelib chiqadiki, bugungi kunda xalqaro maydonda obro‘-e’tibori yuksalib borayotgan

mamlakatimizni dunyoga tarannum etishda ona tilimiz juda katta hissa qo'shamoqda.

O'zbek tilini

rivojlantirish, targ'ib qilish uchun turli darajalarda, jumladan, davlat, ta'lif, madaniy va ijtimoiy sohalarda bir qancha strategiya va tashabbuslarni amalga oshirish mumkin. O'zbek tilining o'sishi va rivojlanishini ta'minlash uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishimiz kerak:

1. **Til siyosati va qonunchiligi:** Hukumat o'zbek tilining ta'lif, ma'muriyat ommaviy axborot vositalari va madaniyat kabi turli sohalarda qo'llanilishini rag'batlantirish uchun til siyosati va qonunchiligini ishlab chiqishi kerak. Bunga rasmiy til maqomi, til huquqlari say-harakatlarini qo'llab-quvvatlashi kiradi.

2. **Ta'lif va savodxonlik dasturlari:** O'zbek tilida sifatli va zamonaviy ta'lif dasturlarini kengaytirish, maktabdan oliv ta'lif muassalarigacha O'zbek tili va adabiyoti fanlariga alohida e'tibor qaratish kerak. Bu jarayonda multimedia vositalari va interaktiv (onlayn viktorinalar va so'rovlardan, hamkorlikda o'rGANISH, interfaol doskalar) o'quv metodlaridan foydalanishi muhimdir.

3. **Madaniyatni asrab avaylash va targ'ib qilish:** O'zbek tilining lingvistik va madaniy merosini namoyish etuvchi madaniy tadbirlar, festivallar, ko'rgazmalar, nashrlar va badiiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash uning o'ziga xos xususiyatlari, an'analari va iboralarini asrab avaylashi va targ'ib qilishga yordam beradi.

4. **Til tadqiqotlari va hujjatlashtirish:** O'zbek tilining til xususiyatlari, shevalari, og'zaki ijodi va yozma asarlarini o'rGANISH, tahlil qilish va hujjatlashtirish bo'yicha til tadqiqoti, hujjatlashtirish va saqlash ishlarini qo'llab-quvvatlash uning samaradorligini oshirishga zamin yaratadi.

5. **Madaniyatlararo almashinuv va hamkorlik:** Til xima-xilligi, ko'p yillik va madaniy merosga umumiylar manfaatdor bo'lgan boshqa mamlakatlar, muassasalar va tashkilotlar bilan madaniyatlararo almashinuv va hamkorlikning kuchaytirilishi o'zbek tilining nufuzi va jahon miqyosida e'tirof etilishini nazarda tutadi.

Ushbu strategiya va tashabbuslarni amalga oshirish orqali mamlakatimiz o'zbek tilini mamlakatning madaniy merosi, milliy o'ziga xosligi va ijtimoiy hamjihatligi uchun zarur bo'lgan milliy an'analarni mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tilni sevish, uni ardoqlash millatni sevish va uni ardoqlash bilan teng hisoblanadi. O'zbek tilini e'zozlash va asrab-avaylash orqali kelajak avlodimizni tilning go'zalligi va teran ma'nosini qadrlashini ta'minlashimiz mumkin. Hozirgi kunda davlat tili masalasi miliy g'oyamizning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Yosh avlod qalbiga ona tilimizni bolalikdan singdirish maqsadida ta'larning barcha bosqichlarida o'zbek tilini zamonaviy va innovatsion texnologiyalar

asosida mukammal o'rgatishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Buning natijasida yoshlarimiz o'zbek tilida ravon o'qiydigan, ravon yozadigan va teran fikrlaydigan insonlar bo'lib yetishadi. Biz xalqimizning taqdiri, ertangi kuni haqida o'ylar ekanmiz, eng avvalo, millatimizning asl fazilatlarini, go'zal urf-odatlarimiz, betakror san'atimiz va adabiyotimizni va ona tilimizni ulug'lashimiz, uning qadriga yetishimiz kerak.

Bugungi kunda jahoning barcha mamlakatlarida davlatimiz delegatsiyalari tashrifi, yoshlarimizning yutuqlari, sportchilarimizning g'alabalari sharafiga o'zbek tilida madhiyamiz barallar kuylanmoqda. Bunday g'alabalar respublikamizni yanada yuqori imkoniyatlarini mustahkamlaydi.

### **Foydalilanilgan adabiyotar**

1. Ne'matov H, Bozorov O. Til va nutq. 1993-yil<sup>1</sup>.
2. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni. 1995-yil 21-dekabr. Toshkent<sup>2</sup>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi farmoni<sup>2</sup>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi farmoni<sup>1</sup>.